

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10899834>

KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATI RIVOJLANTIRISH

Mullajanov Iskandar Tadjibayevich

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati rivojlantirish, shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati rivojlantirish bo'yicha islohotlar hamda amalga oshirilayotgan tadbirlar o'z aksini topgan.*

***Kalit so'zlar:** kichik tadbirkorlik, elektron savdo maydonchasi, eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, eksport salohiyati, raqamli platformalar, budjetdan tashqari jamg'armalar.*

KIRISH

Mamlakatimizda kichik biznes, xususiy tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish, ularga zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda va uni eksportga chiqarishda zarur huquqiy, moliyaviy va tashkiliy yordam ko'rsatish, mamlakatimizning eksport qiluvchi tadbirkorlarini tashqi bozor konyunkturasi o'zgarishlari xavf-xatarlaridan ishonchli himoya qilishni ta'minlash maqsadida respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi. Bu esa o'z navbatida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati rivojlantirish uchun huquqiy asos bo'lib hizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI


Mamasoatov D.R. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bo'yicha elektron savdo maydonchasidan foydalanishni takomillashtirish. Maqolada tadbirkorlik subyektlari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bo'yicha elektron savdo maydonchasidan foydalanish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlar elektron

savdo maydonchasi orqali sotishni tashkil etishning maqsadga muvofiqligi ko'rib chiqilib, buning natijasida tadbirkorlik subyektlari uchun elektron savdo maydonchalaridan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar ishlab chiqilgan.

Mamasoatov D.R. Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash istiqbollari. Maqolada tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda unga ta'sir etuvchi omillar jarayonlari batafsil tahlil etib yoritilgan.

NATIJALAR


Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi. Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-fevral oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi 9,9 mlrd. AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 940,3 mln. AQSH dollariga yoki 10,5 % ga ko'paydi. 2023- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 7,1 mlrd. AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 29,0 % ini tashkil etdi(1-rasm).



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi va ulushi o'zgarish dinamikasi (2018-2023- yillarning yanvar-dekabrida)

2023- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining

jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Surxondaryo viloyatida – 72,4 %, Farg'ona viloyatida – 68,4 %, Xorazm viloyatida – 64,2 %, Sirdaryo viloyatida – 63,4 %, Buxoro viloyatida – 45,9 % va Jizzax viloyatida – 43,5 % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Navoiy viloyatida – 9,0 % ni tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi va ulushi (2023- yilning yanvar-dekabrida)

MUHOKAMA

Respublikada 2023- yilning yanvar- dekabrda YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 51,2% ni tashkil qilib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan 0,4 punktga kamaygan. Kamayishning asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.

Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirishda Tashqi bozorlarni diversifikatsiya qilish hamda tovarlar va xizmatlar eksporti hajmini oshirishda:

1. Eksportbop 10 ta turdagi tayyor mahsulotning har biriga 10 tadan yangi istiqbolli bozorlarni aniqlash.
2. Xorijiy mamlakatlar bilan O'zbekiston mahsulotlari uchun sertifikat, boj va yig'implarni yumshatish bo'yicha muzokaralar o'tkazish.

Shuningdek, “Yangi O‘zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqish doirasida:

1. Xorijiy bozorlarga olib chiqiladigan milliy brendlar ro‘yxatini shakllantirish.
2. Milliy brendlarni xorijda targ‘ib qilish va xaridorlarga tanishtirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish
3. Xorijiy bozorlarda ko‘rgazma va yarmarka tadbirlarini tashkil etish orqali milliy brendlar ostida mahsulotlarni targ‘ib qilish.
4. Yil davomida mahalliy korxonalarining xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirokini 2 barobarga oshirish dasturini tarmoqlar va mamlakatlar kesimida tasdiqlash.
5. Rossiyaning Ivanovo, Vyetnamning Xanoy, Italiyaning Prata, Polshaning Lots shaharlarida to‘qimachilik savdo uylarini ochish.

Bugungi kunda mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan eksportbop mahsulot va xizmatlarni eksport qilishdagi muammolarni tahlil qilish va ular yuzasidan takliflar ishlab chiqish lozim.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinku Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 3502 taga yetdi va ular tomonidan 2313,7 mln. AQSH dollari (nomonetar oltindan tashqari) qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 14,9 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.

Shu o‘rinda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishda:

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun dastavval tadbirkorlik subyektlarini aniq moliyalashtirish manbalarini, shu jumladan aholi mablag‘lari, budjetdan tashqari jamg‘armalar, tadbirkorlar, tijorat banklari va moliya institutlarining kreditlari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlarning grantlari, xalqaro standartlarga muvofiq kredit uyushmalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning davlat xaridlarida ishtirokini oshirish, tadbirkorlik sub’yektlarining davlat xaridlari sohasida yanada soddalashtirish kerak deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni// www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 yanvardagi “Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperasiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-99-son Qarori// www.lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari www.stat.uz
5. Mamasoatov D.R. Tadbirkorlik subyektlari eksportida raqamli platformalardan foydalanish strategiyalari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot1 (11-12),297-303 2023 y.
6. Mamasoatov D.R. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotish bo‘yicha elektron savdo maydonchasidan foydalanishni takomillashtirish. Iqtisodiyot va ta’lim 24 (5), 394-399 2023 y.
7. Mamasoatov D.R. Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirish samaradorligiga tasir etuvchi omillarni aniqlash istiqbollari. Science and innovative development jurnali 5 (3), 122-133 2022 y.